

Leksik Birliklarning Lingvomadaniy Xususiyatlari (“Shum Bola” Asarining Tarjimasi Misolida)

Abdirasulov Bahodir Abdimital o‘g‘li¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada leksik ma’no, lingvomadaniyat, badiiy tarjima tushunchlari haqidagi qarashlar atroficha o‘rganilib, o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan “Shum bola” qissasida qo‘llanilgan lingvomadaniy xususiyatga ega leksik birliklarining asliyat va tarjima matnlarida ifodalagan o‘ziga xos jihatlarining tarjima tahlili bir necha misollar orqali olib borildi. Tahlilga tortilgan misollarga izoh, shuningdek, ba’zi hollarda tarjima matniga xos ekvivalent leksik birliklar tavsiya etildi.

Kalit so‘zlar: leksik ma’no, badiiy tarjima, asliyat va tarjima tili, lingvomadaniyat, transformatsiya, tasviriy tarjima, transliteratsiya.

Kirish. Globallashuv, integratsiyalashuv va madaniyatlarning aralashuvi yuz berayotgan hozirgi kunda turli xalqlar tili va madaniyatini o‘rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish, til va madaniyat mushtarakligini tadqiq etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifalarni hal etishda madaniyatlarni va xalqlarni bo‘g‘lovchi ko‘prik bo‘lgan badiiy tarjimaning o‘rni beqiyosdir. Badiiy asar bu xalqning madaniyatini aks ettiruvchi vosita bo‘lsa, badiiy tarjima esa uning ikkinchi bir tilda aksidir. Badiiy asar tarjimasi bilan shug‘ullanayotgan tarjimon har tomonlama yetuk, intellektual salohiyati yuqori, yuksak ma’naviyatli, ona tili, xorijiy tillar va madaniyatlarni mukammal egallagan va undan tilshunoslik sohasida samarali foydalana oladigan malakali mutaxassis bo‘lishi talab etiladi.

Asosiy qism, So‘z yoki leksik birlikning leksik ma’nosini uning ma’lum bir til tizimidagi o‘ziga xos qiymati va ushbu tizimda foydalanish orqali egallagan "o‘rni" deb hisoblash mumkin [4, 12]. Har bir so‘z ifodalagan lug‘aviy ma’nosi bilan boshqa leksik birliklardan farqlanadi.

Asliyat tilida qo‘llanilgan leksik birlik tarjima qilinayotgan madaniyatga umuman noma’lum bo‘lgan tushunchani ifodalashi mumkin. Bunday birlik diniy e’tiqodga, ijtimoiy hayotga yoki ovqat nomlariga tegishli aniq tushuncha bo‘lishi mumkin. Shu kabi leksik birliklar “madaniy o‘ziga xoslik” ni aks ettiradi. Ingliz tilidagi milliy xos birliklarni boshqa tilga tarjima qilish qiyinchilik tug‘diradi [4, 19]. Tarjima jarayonida til va madaniyatning o‘zaro aloqasi alohida e’tibor qaratiladi. Til va madaniyatning o‘zaro munosabatlarini o‘rganuvchi fan bu lingvomadaniyatshunoslikdir. “Bugungi kunda lingvomadaniyatni muayyan yo‘l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o‘rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta’limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarini ta’minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin” [6, 10]. Demak, lingvomadaniyat madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi va o‘zaro tasirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır.

Lingvomadaniy bilim badiiy asarlar tarjimasida juda muhim ahamiyat kasb etadi, buni o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lgan G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasining ingliz tiliga tarjimonlar Tuxtasinov I. M. va Yoldoshov U. R. tomonidan qilingan tarjimasida ko‘rishimiz mumkin. “Shum bola” qissasi xalq turmushi va hayotining shu davrdagi o‘ziga xos yilnomasi o‘laroq o‘zbek madaniyatini, urf-odatlarini, hayot tarzini, milliyligini aks ettiradi. O‘zbek milliy madaniyatiga xos leksik birliklarining tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va bu

¹ SamDChTI assistent o‘qituvchisi



muamolarni hal etishda tarjimonlar tomonidan qo‘llanilgan usullarni qissaning ingliz tiliga tarjimasini tahlil qilish jarayonida o‘rganib chiqamiz.

Samovarchi - Samovarmaker

Samovar so‘zi o‘zbek tiliga rus tilidan o‘zlashgan (“borrowing”) so‘z hisoblanadi. Samovar rus va o‘zbek tillarida choy damlash uchun maxsus o‘txonali suv qaynatish qurilmasini ifodalaydi, samovar 20-asrlarda choyxonalarda keng foydalanilgan. Samovarchi esa samovarni qaynatadigan insonga nisbatan ishlatiladigan shaxs oti. Samovarchi milliy o‘ziga xos so‘z bo‘lganligi uchun tarjimon ingliz tiliga tarjima qilishda realiyalarning tarjima qilishning tarjima usullaridan birini, ya‘ni tarjima jarayonida yangi so‘z yasash usulidan foydalanangan. Bu usulda realiyaning bir qismi transliteratsiya (alifbo almashinuvi), ikkinchi qismi esa tarjima qilinayotgan tilning morfologik so‘z yasash usullari orqali ko‘chiriladi. *Samovarchi – Samovarmaker* [2, 5], Samovar realiyasi transliteratsiya qilinmoqda, shaxs oti yasovchi –chi qo‘shimchasi ingliz tiliga xos bo‘lgan so‘z yasash usuli orqali “*maker*” (biror vazifani bajaruvchi) so‘zi bilan ifodalangan. Bu misolda shaxs otini yasovchi ikki tildagi birliklar o‘zaro teng ma‘noga ega shu bois realiyaning ikkinchi qismi tarjima qilingan. Asarda berilgan “*Samovarchi Asra kal degan xipchadan kelgan, qotma, epchil yigit edi*” [1, 3] jumlasini tarjima qilishdan kitobxonga tushunarli bo‘lishi uchun tarjimon “*samovarchi*” ni ingliz tiliga izohlab tarjima qilgan “*Asra, the owner of the tea house, was a bald, thin and prompt man*” [2, 5]. Samovar qaynatadigan va choy tayyorlab beruvchi inson choyxonaning egasi hisoblangan. Ingliz tiliga ushbu gapni “*samovarmaker*” birligi bilan ko‘chirilganda samovarchi va choyxona egasi bitta shaxs ekanligini izohlab bo‘lmas edi. Tarjimon qo‘llagan transliteratsiya usuli asliyat matnining milliyligini saqlab qolishga qaratilgan.

Choyxona - Teahouse

Choyxona asosan choy ichish uchun mo‘ljallangan jamoat taomxonasidir. O‘rta Osiyo mamlakatlari, Eron va Turkiyada keng tarqalgan. O‘zbek choyxonalaridagi asosiy taomlar — palov, somsa, lag‘mon, qozonkabob, dimlama, va hk. Choyxonalarda spirtli ichimliklar sotilmaydi. Choyxonalar rabotlar, bozor, guzarlar va mahallalardagi xushmanzara joylarga qurilgan, ularda choy va nondan tashqari turli qand-qurs, meva qoqilar sotilgan, taomlar ham tayyorlangan [8]. Choyxona turkiy xalqlarga xos bo‘lgan asosan erkaklar foydalanadigan, choyxo‘rlik qilinadigan, shuningdek, choyxonalarda yoshi keksa insonlar suhbatlashib askiyalar aytishadigan maskan hisoblanadi. Ingliz tiliga tarjimasida leksik transformatsiyalarning yaqin ma‘noli so‘z bilan tarjima qilish (“paraphrasing”) usulidan foydalanib “*teahouse*” va ba‘zi jumalalarda “*tearoom*” [2, 5] so‘zlarini qo‘llanilgan. Sharqona choyxonalarining yana bir jihati ular har doim odamlar bilan gavjum bo‘lgan, buni asarda berilgan misolda ham ko‘rsak bo‘ladi: “*Choyxonada joy yetishmasdi*” [1, 3]- “*The tearoom is full of people*” [2, 5]. Ingliz tilida choy ichish va yengil tamaddixonada tushunchasini ifodalash uchun bir nechta leksik birliklar ishlatiladi. Masalan, “*Teahouse*” - *a place serving tea and other refreshments* [9] - yengil tamaddi va choy ichish mumkin bo‘lgan joy, “*Tea parlour*” - *a restaurant where tea and light meals are available* [10] – yengil tamaddi va choy bilan xizmat ko‘rsatadigan restoran turi, *A tea parlor, a cafe emphasizing wellness and a small brewery are planned for the second-floor mezzanine* [5, 4]. “*Teashop*” - *a teashop where students in British universities can purchase light meals* – Britaniya universitetlaridagi talabalar yengil tamaddi maxsulotlarini sotib oladigan savdo shaxobchasi. Bu sinonimlar qatorida berilgan misol va izohlardan shu namoyon bo‘ladiki, asarda ishlatilgan milliy xos so‘z “*choyxona*” ma‘nosini hech bir so‘z to‘laqonli aks ettira olmaydi.

Shirmoy non - Oil bread

Choyxonani ta‘riflash jarayonida muallif “*obinon*” va “*shirmoy non*” [1, 3] so‘zlarini ishlatadi. Shirmoy, shirmol (fors.toj. — sutli non) — non turi. Bug‘doy unidan sutga qorib xamir tayyorlanadi. Tandirda yopib pishiriladi [11]. Obinon esa bug‘doy uni va xamiriga o‘simlik yog‘i qo‘shib tayyorlanadigan non turi. Ingliz tilida nonning tarkibi va tayyorlanishiga qarab o‘ndan ortiq turi mavjud. Tarjimon “*hot-bread*” va “*oil bread*” birliklarini ishlatgan. Ingliz tilida tandirda pishirilmasa ham obinon va shirmoy nonni tayyorlashda ishlatiladigan maxsulotlarga ega bo‘lgan “*Olive oil bread*” (made with olive oil as an ingredient including very basic recipes that call for little more than olive oil,



flour, and salt to more complex breads that simply use olive oil as the binding liquid, often in place of water or milk) [12], **“whole wheat”** (made from flour that uses the entire grain, including the bran and germ, whole wheat offers more fiber, protein, and vitamins than white bread), **“focaccia”** (dimpled yeast bread resembling pizza dough that's baked at high temperatures in sheet pans which means fireplace bread) [13] kabi bug‘doy uniga o‘simlik yog‘ qo‘shib tayyorlanadigan non turlarining nomlarini qo‘llab tarjimaning tarjima tiliga yondashuv nazariyasidan foydalanganda kitobxonga yanada tushunarli bo‘lgan bo‘lar edi.

Yakhtak - Oriental robe (long Central Asian summerly coat)

Asarda Asra samovarchi *“Ustida oldi ochiq yakhtak, oyog‘ida qala kovush, zangori shohi qiyiq belbog‘ bog‘lagan...”* [1, 3] kabi ta‘riflangan va bu yerda o‘zbek milliy kiyimlari: yakhtak va qala kovush ishlatilgan. Ingliz tilida ushbu jumla *“He wore a yakhtak (oriental robe) on his shoulder, leather-shoes on his legs, and a glittering blue belt on his waist ...”* [2, 5] kabi tarjima qilingan. Yakhtak — yozgi, yengil erkaklar kiyimi. Oldi ochiq, uzun, yengli hamda tik yoqali. Transliteratsiya usuli bilan tarjima qilingan **“yakhtak”** tushunchasi ingliz o‘quvchisi uchun notanish tushuncha shu sababli tarjimon **“oriental robe”** so‘z birikmasi bilan izoh keltirgan. **“Robe”** o‘zbek tilida ifodalangan **“yakhtak”** tushunchasidan keskin farq qiladi. Yakhtak asosan yozda, qishki kunlarida esa paxtalik, qalin xomashyodan tayyorlangan **“chopon”** kiyiladi. *Dressing gowns – chapans are sewed from striped material, have vertical cuts on the sides. Pockets and buttons are not foreseen. Chapans are summer from thin fabric or winter, warm, quilted with cotton* [14]. Chopon va yakhtakka ingliz tilida berilgan izohda ham ko‘rishimiz mumkin bu so‘zlarga teng ma‘noli birliklar mavjuda emas. Chopon so‘zining Abdulla Qodiriyning **“O‘tkan kunlar”** romanining ingliz tiliga Mark Reese tomonidan qilingan tarjimasida *“At that very moment, a shadow crept out from around the corner, wrapped in a chopon”* [2, 39] shaklida aks ettirilgan. Birgina yakhtak so‘ziga yaqin ma‘noli so‘z hisoblangan **“a wrapt shirt”** ham boshqa ma‘noni kasb etadi. **“Wrapt”** asosan kiyim ustidan kiyiladigan ayollar ustki kiyimi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, ingliz tilida realiyalarni tarjima qilishda tushunchani izohlab so‘z yasash usuli orqali hosil qilingan **“Islamic men robe”** yoki **“Muslim men robe”** birliklari ham yakhtak so‘zining muqobil variantlari sifatida ishlatiladi.

Kovush esa odatda mahsi bilan yoki sarpoychang kiyiladigan oyoq kiyimi. Kovush o‘zbek xalqiga xos oyoq kiyimi hisoblanadi, ingliz tiliga **“leather shoes”**, ya‘ni tarjimaning izohlash usuli orqali tarjima qilingan, ammo ingliz tilida **“leather shoes”** juda keng ma‘noli tushuncha. Charmdan tayyorlangan har qanday oyoq kiyimi ma‘nosini ifodalaydi. Ushbu poyafzalning ingliz tiliga tarjima qilishdan ingliz tiliga xos **“rubber shoes”** leksik birligiidan foydalanish mumkin edi. **“Leather shoes”** birligiga nisbatan **“rubber shoes”** torroq va o‘zbek poyafzalining tayyorlashda foydalanilgan xomashyoni ham ingliz tilida **“rubber”** so‘zi bilan aks ettiradi. **“Mahsi”** so‘zi esa ingliz tiliga yaqin ma‘noli so‘z bilan yoki moslama tarjima usuli orqali **“leather socks”**, **“leather mest”** (charm paymoq) yoki asliyat matnining milliylikini saqlash yondashuviga asoslanib tarjima qilinsa **“Islamic leather mest”** shaklida ham ifodalash mumkin. **“Zangori shohi qiyiq belbog”** [1, 3] jumlasida **“Glittering blue belt”** [2, 5] shaklda tarjima qilingan. Belt so‘ziga ingliz tilida quyidagicha izoh keltirilgan: a strip of leather or material worn around the waist to support clothes or for decoration [15], ya‘ni o‘zbek tilida charmdan tayyorlangan kamar ma‘nosini anglatadi, ammo asarda ifodalangan belbog‘ so‘zi chopon kiyilib ustidan belni tutib turish uchun bog‘lanadigan o‘zbek milliy kiyimlarining bir turi hisoblanadi. Abdulla Qodiriyning **“O‘tkan kunlar”** romaninida **“Qovoq devonaning belbog‘i”**, **“...yangi bo‘z belboqni besholti aylandirib bog‘lag‘an...”** [1, 86] jumllarining **“The sash of Mad the Gourd”**, **“A new cotton sash wrapped several times around his waist”**[2, 176] kabi ingliz tilida **“sash”** so‘zi bilan tarjima qilinganini ko‘rishimiz mumkin. Demak, asarda keltirilgan **“belbog”** so‘zining ingliz tilida ekvivalenti mavjud va **“sash”** leksik birligi **“belt”**ga qaraganda matnga xos bo‘lar edi.

Xulosa, Til madaniyatning ko‘zgusi bo‘lib, unda nafaqat insonni o‘rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an‘analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig‘indisi va dunyoqarashini ham aks etadi. Tarjima jarayonida ushbu jihatlarni barchasi ikkinchi bir tilda qayta yaratiladigan murakkab jarayon. Tarjimon oldida ikki xil yondashuv turadi: tarjimaning transliteratsiya, transkripsiya va tasviriy tarjima



usullaridan foydalanib asliyati matnining milliy-madaniy xususiyatlarini saqlab qolish yoki yaqin ma'noli leksik birliklardan foydalangan holda tarjima tili madaniyatiga xos matn yaratish. Tarjimon asliyati matnining xususiyatlarini saqlab qolgan holda ikkinchi bir tilda ekvivalent matn yaratishni maqsad qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" Yoshlar nashriyot uyi. 2018. - 401 b.
2. Abdullah Qodiriy "Bygone days" translated by Mark Reese. USA: Middle town. 2021. - 495 p.
3. Gulom Gafur "Naughty boy" translator Tuxtasinov I. M., Yoldoshev U. R. Tashkent: Yangi asr avlodi, 2017. -128 pages
4. Mona Baker "In other words". London: Routledge. 2011. -332 p.
5. New York Times Jan 28, 2020
6. Usmanova Sh. "Lingvokulturologiya" darslik, Toshkent - 2019. 248 b.
7. G'afur G'ulom "Shum bola" Future books, Toshkent -2021 210 bet
8. Abdimal o'g'li, A. B. (2023). TARJIMANING TRANSFORMATSION MODELII.
9. Abdirasulov, B. A. O. G. L. (2022). NUMERATIV TURG'UN BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI. *Scientific progress*, 3(4), 275-280.
10. Abdirasulov, B. A. O. G. L. (2020). KONTSEPTNING LISONIY VOQELANISH JARAYONI. *Science and Education*, 1(9), 296-301.
11. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Choyxona>
12. <https://en.wikipedia.org/wiki/Teahouse>
13. <https://www.vocabulary.com/dictionary/tea%20parlor>
14. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shirmoy>
15. <https://www.delightedcooking.com/what-is-olive-oil-bread>
16. <https://www.countryliving.com/food-drinks/g30893130/types-of-bread/>
17. <https://www.people-travels.com/about-uzbekistan/uzbek-customs-and-traditions/uzbek-national-clothes.html>
18. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/belt>

